

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№10

2025
oktyabr



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

*Elektron nashr,
75 sahifa, oktyabr, 2025-yil.*

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

JAHON MOLIYA TIZIMIDA “YASHIL” MOLIYALASHTIRISHNI RIVOJLANISHINING MUAMMOLARI VA SHARTLARI	12
Quliyev Begimqul Melikovich	
EKOLOGIK MIGRANTSIYANI MINTAQAVIY MIQYOSDA MUVOFIQLASHTIRISHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI	18
Bahtiyor Ismoilov Ulug‘bek o‘g‘li, Kadirova Zulayxo Abduxalimovna	
O‘ZBEKISTONDA BANK XIZMATLARINI RAQAMLASHTIRISH HOLATI	25
Davletova Nilufar Tulanovna	
EKONOMETRIK MODELLASHTIRISHDA MINTAQANI IQTISODIY RIVOJLANISHIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI	30
Qodirov Farrux Ergash o‘g‘li	
SUV RESURLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING XORIJ TAJRIBASI	37
Kadixodjayeva Nilufar Raxmatullayevna	
PECULIARITIES OF THE IRRIGATION WATER DELIVERY PAYMENT IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN	41
Muminov Sherzod Kholmirzaevich	
MAHALLIY XOMASHYO BAZASIDAN FOYDALANISH ORQALI ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARINI KAMAYTIRISH YO‘LLARI	46
Sultanov Dilshod Normamatovich	
IQTISODIYOTI RIVOJLANGAN DAVLATLARDA INSON KAPITALIGA INVESTITSİYALARNI JALB QILISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	50
Akhmadaliyeva Nikholakhon	
RAQAMLI PLATFORMALAR ORQALI KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI	55
Vohobov Hikmatillo Ma‘mirjon o‘g‘li	
O‘QITUVCHILAR VA TALABALAR UCHUN INNOVATSION TA’LIM DASTURLARINI ISHLAB CHIQISHDA XALQARO STANDARTLARGA MOSLASHUV MEXANIZMLARI	62
Yuldashev Iskandar Bahromovich	
YER QA’RIDAN FOYDALANGANLIK UCHUN SOLIQLARNING ILMIY-TADQIQOTLAR SHARHI	68
Zoxidov Ismatjon Yunusjon o‘g‘li	



YER QA'RIDAN FOYDALANGANLIK UCHUN SOLIQLARNING ILMIY-TADQIQOTLAR SHARHI

Zoxidov Ismatjon Yunusjon o'g'li

PhD, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Keyingi yillarda dunyo mamlakatlari qisqa va uzoq muddatli budjet-soliq siyosatiga oid strategiyasini ishlab chiqishda soliq to'lovchilar tomonidan soliqdan qochish holatlari oldini olish va uni kamaytirishning turli xil mexanizmlarini joriy etishga alohida e'tibor bermoqda. Shu bilan birga, sohalar o'rganilib, xorij tajribasi, mamlakatimizda uni qo'llash bo'yicha ilmiy-amaliy xulosa va takliflar shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: soliq tushumlari, tahlika-tahlil, xavflar, samaradorlik, raqamli platforma, usullar va vositalar, ilg'or axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, tahlil, optimallashtirish, soliq imtiyozlari, soliq stavkasi.

Abstract: In recent years, countries around the world, when developing short- and long-term budget and tax policy strategies, have been paying special attention to the introduction of various mechanisms to prevent and reduce tax evasion by taxpayers. At the same time, areas have been studied, foreign experience has been studied, and scientific and practical conclusions and proposals have been formulated on its application in our country.

Keywords: tax revenues, risk analysis, risks, efficiency, digital platform, methods and tools, advanced information and communication technologies, analysis, optimization, tax incentives, tax rate.

Аннотация: В последние годы страны мира при разработке краткосрочных и долгосрочных стратегий бюджетной и налоговой политики уделяют особое внимание внедрению различных механизмов по предупреждению и сокращению уклонения от уплаты налогов налогоплательщиками. При этом изучались территории, изучался зарубежный опыт, формулировались научно-практические выводы и предложения по его применению в нашей стране.

Ключевые слова: налоговые поступления, анализ рисков, риски, эффективность, цифровая платформа, методы и инструменты, передовые информационно-коммуникационные технологии, анализ, оптимизация, налоговые льготы, налоговая ставка.

KIRISH

Yer qa'ridan samarali foydalanish muammolari bilan texnik, yer tuzish va melioratsiya yo'nalishidagi fanlar bilan bir qatorda iqtisodiy fanlar doirasida qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lsada, soliq tizimi orqali ulardan samarali foydalanishda samaradorlikni ta'minlash va bu borada soliq to'lovchi tadbirkorlarning ma'suliyati soliq mexanizmlari orqali oshirish masalalari bag'ishlangan ilmiy tadqiqot ishlari jahonda ustuvorlik kasb etmoqda. Bu borada jahon amaliyotida turlicha iqtisodiy va ma'muriy usullardan keng foydalanishiga qaramasdan ilmiy tadqiqotlar ob'ektida samarali soliq mexanizmlarini joriy etish bog'liq ilmiy tadqiqotlarga ehtiyoj yuqori bo'lib qolmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

O'zbek olimlardan G'.A.Safarov "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning tabiiy resurslardan samarali foydalanishini soliqlar vositasida rag'batlantirish" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiya ishida korxonalar va tashkilotlar tomonidan tabiiy resurslar bilan bog'liq ishlab chiqarish jarayoniga jalb qilingan kam chiqitli investitsiyalar uchun rag'batlantiruvchi imtiyozlarni qo'llash, tabiiy resurs soliqlarini ixchamlashtirilgan soliqqa tortish tizimida ham qo'llashni ilmiy asoslagan, noqishloq xo'jalik korxonalaridan olinayotgan yer solig'ini hisoblab chiqish va undirishda ular foydalanayotgan yerning kadastr qiymatidan undirish mexanizmini joriy qilish masalasini taklif qilgan, yer osti boyliklaridan olinadigan soliqlarni hisoblashda hisobga olish usulini taklif etgan hamda bu soliqni undirish mexanizmlarini yanada takomillashtirish yuzasidan ilmiy takliflar ishlab chiqqan[1].

D.Qurbanov esa o'zining dissertatsion va monografik tadqiqotlari asnosida O'zbekistonda "alkogolsiz ichimliklarni ishlab chiqaruvchi korxonalarda suv resurslaridan tejamli va samarali foydalanishni ta'minlash maqsadida ularga suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni joriy etish taklifini ishlab chiqqan, shuningdek, avtotransport vositalarini yuvishga ixtisoslashgan korxonalar uchun suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni belgilashni asoslagan, suv resurslaridan oqilona va samarali foydalanishni ta'minlashda tadbirkorlik



subyektlarining yillik yalpi tushumi 1 mlrd. soʻmdan oshgan taqdirda suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq toʻlovchilari tarkibiga kiritilishi taklifi” ni ishlab chiqqan[2].

A.Toshqulov qishloq xoʻjaligi tovar ishlab chiqaruvchilari soliq toʻlovchilarning soliq toʻlovchi sifatida maqomini aniqlash, umumbelgilangan tartibda soliqqa tortish, qishloq xoʻjaligi korxonalari iqtisodiy faoliyatini ragʻbatlantirish maqsadida suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq boʻyicha pasaytirilgan stavkalarni qoʻllash, yangi barpo etiladigan bogʻ, tokzor va tutzorlar egallagan yerlarni soliqlar vositasida ragʻbatlantirish masalalarining metodologik yoʻnalishlarini ishlab chiqqan[3].

Iqtisodchi S. Kuznesov tadbirkorlik sub'ektlarini moliyaviy qoʻllab quvvatlash masalalarini nazariy jihatdan tizimlashtirib, jarayonli paradigma sifatida uning bir qancha muhim ilmiy iqtisodiy tadqiqot qoidalarini yoritib bergan. Xususan, “Moliyaviy qoʻllab quvvatlash” konsepsiyasi pul mablagʻlari yoki moddiy aktivlarning kombinatsiyasi sifatida taqdim etilishini eʼtirof etadi[4].

Amerikalik iqtisodchilar Zvi Bodi va Robert Mertonlar moliyaviy qoʻllab-quvvatlash tizimiga aniqlik kiritib, moliyaviy qoʻllab-quvvatlash tizimi sifatida maʼlum ob'ektlarga nisbatan qabul qilinadigan tadbirlarni amalga oshirish harakatlari majmuasi va ketma ketligi ekanligini ilgari surishgan. Ular moliyaviy taʼminot bilan bogʻliq qoʻllab quvvatlash tizimi moliyaviy kategoriya sifatida moliyaning iqtisodiy mohiyati va funksiyalariga asoslanishi lozimligini eʼtirof etishadi[5].

Iqtisodchi S. V. Barulin, moliyaviy qoʻllab quvvatlash tizimini ikki tomonlama jarayon sifatida koʻrib oʻtadi. Uning fikricha moliyaviy qoʻllab-quvvatlash tizimi, alohida iqtisodiy agentlarni moliyaviy taʼminot tizimini maʼlum noaniqliklar sharoitida optimal taʼminlashni muvofiqlashtirish hisoblanadi[6].

Iqtisodchi I.V. Ziyatkovskiyning fikricha, moliyaviy qoʻllab quvvatlash yaʼnli tizim sifatida jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy sohalarini barqaror rivojlanishini moliyaviy taʼminlash uchun qulay muhit yaratadigan moliyalashtirish manbalari va shakllari tizimidir[7].

T.V. Sokolskaya qishloq xoʻjaligini moliyaviy qoʻllab quvvatlash tizimiga aniqlik kiritib, qishloq xoʻjaligi tadbirkorlik sub'ektlarining asosiy va aylanma, xususiy va qarz mablagʻlar bilan taʼminlash, yetarli hajmdagi mahsulot ishlab chiqarishni taʼminlash uchun qulay moliyaviy shart sharoit yaratish tizimi ekanligini taʼkidlaydi[8].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada muallif tomonidan qiyosiy tahlil, induksiya va deduksiya, statistik kuzatish usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Qadimgi Gresiya, Rim, Yevropa va Osiyo davlatlarida shakllangan qadimgi davlatchilik shakllarida davlatning asosiy faoliyatining yoʻnalishlari sifatida turli xil binolar, inshootlarning qurilishi, umumiy manfaatlarga xizmat qiluvchi sohalarini (sud, huquq-tartibot, pochta, pulni zarb qilish va almashinuvlar, umumiy foydalanishga xizmat qiluvchi transport tizimi va sh.k.) shakllantirish, aholining ayrim guruhlari tomonidan amalga oshirish imkoniyati cheklangan tarmoqlarni rivojlantirish (masalan, rudalarni qayta ishlash)ga eʼtibor berib kelingan va ular davlatning daromad olish manbalari sifatida katta rol oʻynab kelgan. Regaliya lotincha soʻz boʻlib, “regalis – shohga tegishli, shohniki” degan maʼnoni anglatib, keyingi vaqtlarda undan shaxslarga tegishli maxsus va noyob narsalarga (masalan, turli xil yoriqlar, medallar, sovrinlar, kasbiy buyumlar) nisbatan qoʻllanilib kelinadi.

Dastlabki vaqtlarda shoh (hukumat boshligʻi)ga tegishli barcha mol-mulk va buyumlarga nisbatan qoʻllanilgan holda, davlatchilikning ilk koʻrinishlarida baʼzi davlatlarda shoh va davlatga tegishli boʻlgan mol-mulk oʻrtasida toʻliq ajralishlar boʻlmagan sharoitda davlatga tegishli binolar va boshqa daromad keltiruvchi mol-mulk va huquqlar ham regaliyalar tarkibiga kiritilgan. Keyinchalik davlat mulki va daromadlarining ajralishi sabab regaliyalarga davlat mulki va unga daromad keltiruvchi daromad sifatida izohlanib kelingan. Nemis olimi German Shtrauxning tadqiqotlariga koʻra regaliya tushunchasi XII asrda Italiya qonunchiligida keltirilgan boʻlib, unda imperatorga tegishli barcha huquqlar, sud va boshqaruvga nisbatan ishlatilgan. Bu tushuncha XIII asrda Germaniyada keng qoʻllanila boshlandi. Bu davrda oltinni qazish ishlari rivojlanish tusiga kirishi regaliyalar noyob metallarga nisbatan huquq sifatida qoʻllanilgan. Oʻrta asrlarda esa regaliyalar farqlanib boshlandi. Hukumatga tegishli barcha huquqlar, sud va boshqaruv, davlat ramzlari (toj, podshoh hassasi) “regalia majora” deb nomlangan boʻlsa, “regalia minora” yoki “regalia utilia fisci” nomli regaliyalar orqali davlatga tegishli boshqa barcha narsa (mol-mulk, boylik)lar tushunilgan. Iqtisodiy adabiyotlarda davlat monopoliyasini regaliyalardan farqli ekanligi izohlanadi. Masalan, tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarish jamiyat manfaatlariga xizmat qilmaganligi uchun tamaki sanoati emas, undan olingan soliqlar, shuningdek, qimor oʻyinlari, lotareya oʻyinlariga tegishli huquqlar emas, balki ushbu faoliyatdan olingan daromadlar regaliyalar hisoblanishi belgilangan. Davlatlarning taraqqiy etib borishi va ularda pul dastaklari, pochta aloqalari va telefon tarmoqlarining rivojlanishi hamda ulardan olingan daromadlar asosan regaliyalar sifatida izohlandi. Davlat regaliyalarining orasida pul

regaliyalari eng qadimiy hisoblanadi. Pul regaliyalarini davlat o'z qo'liga olib, uni chop etish orqali daromadga ega bo'lgan, ya'ni uni chop etish nominal xarajatlari va uning haqiqiy bahosi o'rtasidagi farq davlat daromadlari sifatida baholangan.

Keyinchalik uning turlarini kengayishi, masalan, chek, veksel, muomala vositalari, bank biletlarini muomalaga kiritish davlatga ma'lum daromadlar olib kelgan. Ayrim davlatlarda pul regaliyalarning daromadlilik darajasi uning boshqa pullarga almashinish darajasi(kursi)ning oshishi sabab bunday regaliyalarni rivojlantirishga katta e'tibor berila boshlandi. Pochta, temir yo'l, telegraf, telefon xizmatlari, mulklarni rasmiylashtirib berish, shaxslarga oid hujjatlarni rasmiylashtirish va shu kabilardan olingan daromadlar soliq tizimi davlatning asosiy iqtisodiy richagiga aylangunga qadar davlat daromadlarining (budjetining) asosiy daromad manbai sifatida ahamiyat kasb etib kelgan. Demak, jamiyatning taraqqiylashuvi va davlatlar soliq tizimining rivojlanishi orqali regaliyalarning o'rni va ularning davlat hamda jamiyat hayotidagi moliyaviy roli o'zgarib borgan. Hozirgi vaqtda davlat regaliyalarning quyidagi shakllari keltirilib o'tiladi: Sanoat (monopoliya tarmoqlaridan olinadigan daromad, ruxsatnomalar va litsenziyalar berishdan olingan daromad, ro'yxatdan o'tkazganlik uchun yig'implardan olingan daromad); sud ishlari (sud bojlari, sud qarori ijro etilganlik uchun yig'im, jarimalar va mulkni davlat foydasiga o'tkazish); pul (pul va boshqa qimmatli qog'ozlarni chop etishdan daromadlar); bojxona (boj to'lovlari va noqonuniy mollarini davlat foydasiga o'tkazish) regaliyalar keltirib o'tiladi¹.

Demak, davlatlarda yer qa'rini o'zlashtirishga bo'lgan ehtiyojning yuzaga kelishi va undan foydalanib borish bilan birgalikda yer qa'ridan foydalanish bilan bog'liq munosabatlarga doir, ayniqsa, soliqqa tortish bilan bog'liq ilmiy tadqiqotlarga ham ehtiyoj tug'ilib boshlandi. Iqtisodiyotning sanoatlashuvi va u uchun asosiy xom-ashyo bo'lgan yer qa'ri boyliklaridan foydalanish kuchayib borishi, o'z navbatida yangi ilmiy tadqiqot jarayonlariga ham ehtiyoj tug'ildi, quyida ana shu kabi ilmiy tadqiqotlarni ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilamiz.

Dastlab, bu masala klassik iqtisodchilar va soliq nazariyachilar tomonidan o'rganila boshlandi. Jumladan, J. Simond de Sismondi, O.Eger, S.Parkinson, S.Vitte, F.Nitti, A.Loria, E.Seligman, R.Sturm F.Kene, A.Turgo, V.Petti, A.Smit, D.Rikardo, A.Smit, G.Maltus va J.Sey, Mirabo Onore-Gabriel Riketti, R.Makkonnella, E.Jirarden, S.Ilovayskiy, M.Pinskaya, P.Buagilber va shu kabilarning ilmiy tadqiqotlarida ma'lum darajada yer qa'ri boyliklaridan samarali foydalanish va ularni soliqqa tortishning ayrim masalalari yoritilgan.

Jumladan, Angliya klassik iqtisodiy maktabining asoschisi Vilyam Petti (1623-1687) u 1662-yilda soliqlarga oid "Soliqlar va yig'imlar to'g'risida risola" nomli asarini yozadi. V.Pettingning mazkur asari 15 bobdan iborat bo'lib unda davlatning (Irlandiya davlati misolida) xarajatlarini olti guruhga bo'lib, bunday xarajatlarni qoplashning va uning darajasiga ta'sir qiluvchi umumiy va boshqa omillarni tahlil qilib beradi. V.Petti davlatning asosiy daromad manbai sifatida yer qa'ridan samarali foydalanish va undan soliqlar undirishni taklif qiladi. U.Pettingning soliq nazariyasini rivojlantirishdagi katta hissalaridan biri shundaki, u bundan tashqari iste'molni soliqqa tortish eng samarali usul deb hisoblaydi va uning afzalliklarini isbotlab beradi, shu bilan birgalikda iste'mol deganda davlatning yer osti boyliklarini o'zlashtirishi va uni soliqqa tortish jihatlariga ham alohida urg'u beradi.

Yana bir klassik iqtisodiyot nazariyasining yirik vakillaridan bo'lgan D.Rikardo 1817-yilda "Siyosiy iqtisod va soliq solishning boshlanishi" nomli asarida soliqlarga oid nazariyalarni yanada boyitib, yer qa'ridan soliq undirish masalasiga ham to'xtalib o'tadi. Olimning mazkur kitobi uch bo'limdan iborat bo'lib, uning dastlabki qismida iqtisodiyotning nazariy muammolari sifatida davlat faqat yer solig'i va mulk solig'iga emas, shu bilan birgalikda yer qa'rini soliqqa tortish bilan bog'liq muammolarni yoritadi, shuningdek, iqtisodiyotdagi boshqa muammolariga ham e'tibor qaratadi, keyingi asosiy qismi bevosita soliqlarga bag'ishlanadigan hamda asarning uchinchi qismida esa o'z davrining yirik olimlari bo'lgan A.Smit, G.Maltus va J.Seylarning boshqa sohalari singari yer osti boyliklarini soliqqa tortish bo'yicha ilmiy nazariy qarashlarini iqtisodiy tahlil qiladi hamda o'zining ilmiy yondoshuvlarini keltiradi.

D.Rikardoning fikriga ko'ra, agar davlat o'zining xarajatlarini qoplash uchun qo'shimcha soliq turlarini joriy qilish yo'lidan boradigan bo'lsa, u holda ishlab chiqarish va kapital kamayib ketadi, soliqlar esa daromadning oxiri qismi (iste'mol)ga tushadiki, milliy kapital o'smay qoladi. Kapitalning keskin kamayib ketishi esa ishlab chiqarishni qisqartiradi, shuning uchun ishlab chiqarishni sanoatlashtirish, yer qa'ridan foydalanishning qoidalarini o'rnatish hamda adolatli soliqqa tortish degan g'oyani ilgari suradi. Shu jihatdan ham olim kapitalni o'sishida, ayniqsa davlat xarajatlarni qoplashda soliqlar, jumladan yer qa'ri bilan bog'liq maxsus to'lovlar (soliqlar) katta rol o'ynashi lozim deb hisoblaydi.

Boshqa fiziokratlar singari F.Kene ham o'z tadqiqotlarida yer qa'rini soliqqa tortishga alohida e'tibor bergan. F.Kening muhim tadqiqotlaridan biri bu birinchilardan bo'lib milliy daromadni tahlil qilib, uning soliqlar bilan bog'liqligini ochib beradi hamda ekspluatatsiyaning asosiy shakli obrok deb hisoblagan. "Obrok" bu o'sha vaqtda u pul va natural mahsulot shaklida olingan asosiy soliq turlaridan bo'lib, qishloq xo'jaligidagi ahvolga salbiy ta'sir etib boshlagan edi. U ham xuddi Per Buagilber singari davlat moliyaviy manba sifatida faqat yer solig'i emas, boshqa manbalarga e'tibor qaratishi lozimligi ta'kidlab, shunday manbalar sifatida yer qa'ridan samarali foydalanib, ularni soliqqa tortish ekanligini ko'rsatib bergan.

1 Қапанг: <https://ru.wikipedia.org>.



XVIII asrning ikkinchi yarmida soliqlarga oid ilmiy nazariyalar klassik iqtisodiy maktabning zabardast vakillaridan bo'lgan Britaniyalik olimlardan biri Adam Smitning ishlarida ancha rivoj topdi. A.Smit asli Shotlandiyalik bo'lib, u o'z faoliyati va ilmiy ishlarini Angliyada amalga oshirgan. Shu tufayli ham uning iqtisodiy qarashlari va soliqlarni undirish borasidagi nazariyalari Angliyaning iqtisodiy tizimi xususiyatiga asoslanadi. Uning 1766-yilda o'z yurtiga qaytib yozgan va Angliyada chop ettirgan – “Xalqlar boyligining tabiati va sabablari to'g'risidagi tadqiqot” asarida shu vaqtga qadar iqtisodiyotga tegishli barcha nazariyalar, jumladan, soliqqa tortish nazariyalarini yagoni tizimga birlashtirdi va ularni tartiblashtirdi. A.Smitning bu asari besh kitobdan iborat bo'lib, birinchi kitobda qiymat va qo'shimcha daromad masalalari, ikkinchi kitobda esa kapital jamg'arilishining shakllanishi davrida Yevropaning iqtisodiy rivojlanishining tendensiyalari, uchinchisida turli xalqlarda farovonlik, kapitalizm taraqqiyotining tarixiy shart-sharoitlari, to'rtinchisida – merkantilizm va fiziokratlarning ta'limotiga nisbatan o'z qarashlari va oxirgi kitobida esa davlat moliya tizimi doirasida davlat g'aznasida yer qaridan foydalanganlik uchun to'lovalarning ahamiyati va ularga soliq solish hamda soliqlarga oid boshqa muaommalar tadqiq etilgan.

A.Smitning soliqlarga oid ilmiy ishlaridagi yutug'i shundaki, u davlatning moliya va soliq siyosatining o'zaro bog'liqlikda tadqiq etib, bu boradagi zamonaviy konsepsiyalarini yaratdi. A.Smit davlatning iqtisodiy funksiyalarini tahlil qilib, unga zarur bo'ladigan xarajatlarning optimal miqdorlarini aniqlash va uni qarz siyosatining asosiy yo'nalishlari bilan bog'liqligini ko'rsatib berdi. Uning fikricha, davlat foydadan oladigan soliqdan faqatgina o'zi manfaat ko'radi, bu borada sanoatlashgan korxonalarning foydasi, ayniqsa ular nodir metallarni ishlatishdan olgan foyda olgan korxona egalari esa soliqni mahsulotning narxiga qo'shish orqali iste'molchining zimmasiga yuklaydi va mahsulotlar narxining oshishiga olib keladi, bu yerda soliqlar faqat fiskal ahamiyatga ega bo'lib qoladi deb hisoblaydi.

Soliqqa tortish nazariyasining rivojlanishida nemis iqtisodchisi Adolf Vagnerning (1835-1917) hissasi yuqori hisoblanadi. A.Vagner soliqqa tortish tizimida muammolarni bir biriga o'zaro bog'liq holda qaraydi, bu muammolar ichida davlatning korxonalari daromadi bo'yicha davlatga tegishli konlardan olgan daromadini soliqqa tortish masalalariga urg'u beradi. A.Vagner progressiv soliqqa tortishni afzal deb bilgan, konlarni o'zlashtirishdan olgan daromadlarga ham buni qo'llash lozimligi va soliqlarning eng muhim manbai xalq xo'jaligining sof daromadi bilan birgalikda kapitalni soliqqa tortish asosiy masalalardan biri bo'lishi lozim degan g'oyaga asoslanadi. Uning fikriga ko'ra, sof daromadni soliqqa tortish uning egasining minimal turmush tarziga ta'sir qilmaydi va soliq to'lovchi minimum tarzda bo'lsa ham daromadga ega bo'ladi.

Agar keyingi zamonaviy sharoitlardagi soliqqa tortish muammolari bilan shug'ullangan olimlarning yer qari boylklari yoki bunday faoliyat bilan shug'ullanadigan korxonalarni soliqqa tortish jarayonlarini tahlil qiladigan bo'lsak, V.Baturinning ilmiy tadqiqotlarida yoqilg'i-energetika sohasini soliq siyosatini boshqarishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlarini keltirish mumkin². V.Baturin ilmiy tadqiqotlarida yoqilg'i-energetika sohasidagi korxonlarda soliq siyosatini shakllantirish tizimini tahlil qilgan, ularda bu soliqni rejalashtirish masalalarini ko'rib chiqqan, yoqilg'i-energetika tarmog'i korxonalarining moliyaviy natijalari bo'yicha soliq siyosatining ekonometrik modelini ishlab chiqqan. Shuningdek, uglevodorod resurslari uchun soliq stavkalarini belgilash bo'yicha yoqilg'i-energetika korxonalarining texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tahlil qilgan, yoqilg'i-energetika kompleksida yer qaridan ijaraga foydalanish bo'yicha uslubiy tavsiyalarni hisobga olgan holda soliqqa tortish sohasidagi qonunchilik siyosati qoidalarini takomillashtirish tizimini taklif etgan, tarmoqda tabiiy energiya resurslarini jahon bozoriga eksport qilish sharoitida korxonaning standart rentabellikni olishini va ortiqcha foydani davlatning ustunligini saqlab qolinganda taqsimlashni ta'minlash taklifini ishlab chiqqan.

Xususan, Y.Berger “renta to'lovi” tushunchasini iqtisodiy va huquqiy nuqtai nazardan ochib beradi. Uning fikricha, “Yer qaridan foydalanish tizimida renta bu, birinchidan, yer qaridan foydalanish va daromad keltirish huquqi uchun to'lov (tabiiy renta), ikkinchidan, yer qaridan foydalanish va yer qaridan foydalanish shartlarini differensiallashtirish munosabati bilan olinadigan daromad (kon rentasi)dir”³. Shuningdek, bu iqtisodchi ta'kidlaydiki, “Yer qaridan foydalanganlik uchun renta to'lovlari yer qaridan foydalanganlik uchun tabiiy renta to'lash va foydali qazilmalarni qazib olish jarayonida hosil bo'lgan tog'-kon rentasini davlat daromadiga qisman olib qo'yishning bir usuli bo'lgan majburiy to'lovlardir. Yer qaridan foydalanish sharoitida neft qazib oluvchi korxonalardan ijara to'lovlarini belgilashdan asosiy maqsad Yer qaridan va foydali qazilmalar zaxiralardan foydalanganlik munosabati bilan yer qaridan foydalanuvchilardan haq to'lash va ijara daromadlarining bir qismini olish bo'yicha davlat huquqlarini amalga oshirishdan iborat”⁴.

2 Батурин Владимир Юрьевич Управление налоговой политикой в топливно-энергетическом комплексе (на примере Тюменской области) Специальность - 08.00.05. - экономика и управление народным хозяйством. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Москва – 2005. стр. 28.

3 Бергер Екатерина Владимировна. Рентные платежи нефтедобывающих предприятий при недропользовании. Специальность: 12.00.14 — административное право, финансовое право, информационное право Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук Омск-2006, стр. 11.

4 Уша манба.

Bundan tashqari, Y.Berger foydali qazilmalarni qazib olish solig'ining funksiyalari haqida ham fikr bildiradi. Ya'ni, bu soliq fiskal va tartibga solish funksiyalari bajaradi. Fiskal funksiya davlat budjetlarning daromad qismini shakllantirish manbalaridan birini ifodalasa, bunday soliqning tartibga solish funksiyasi shundaki, u yalpi daromadni taqsimlash va qayta taqsimlash vositasi sifatida xizmat qiladi, biroq, bu soliqda soliq solinadigan bazani aniqlashda renta hosil qiluvchi omillar, masalan, ishlab chiqarishning kon-geologik va iqtisodiy-geografik sharoitlari hisobga olinmaydi, bu esa soliqning bu funksiyasini soliqqa tortishda buni e'tiborga olish lozim bo'ladi.

Y.Melnikova o'z ilmiy tadqiqotlarida tabiiy resurslarni soliqqa tortishda uchta jihatni keltirib o'tadi, ya'ni, soliqlar, yig'imlar va to'lovlarni farqlaydi. Shuningdek, u "resurslarni soliqqa tortish va renta tushunchasi haqidagi ilmiy g'oyalarni tarixiy retrospeksiya o'rgangan, yer osti boyliklaridan foydalanishda soliq munosabatlarining moliyaviy mazmunini va ijara daromadlari tushunchasini ochib bergan, Rossiya davlati misolida yer qa'ridan foydalanuvchilarning resurs-ijara soliqlarini shakllantirish xususiyatlarini aniqlab bergan va faoliyat yurituvchi resurs-ijara soliqlari va yig'imlari mexanizmini va uning tarkibiy elementlarini tavsiflab bergan, shuningdek, neft va gaz daromadlarini oshirish va ularni mamlakat budjet tizimida qayta taqsimlash muammolarini aniqlab bergan, resurs-renta soliq mexanizmining funksional elementlarini takomillashtirish yo'nalishlarini tizimlashtirgan"⁵.

G.Golovanov esa, Y.Melnikovadan farqli ravishda "foydali qazilmalarni qazib olish solig'ining huquqiy mohiyatini ochib bergan, foydali qazilmalarni qazib olishni soliqqa tortishni huquqiy tartibga solish bo'yicha xorijiy tajribani qiyosiy tahlil qilgan, yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq solish bo'yicha milliy qonunchilikning rivojlanishini tahlil qilgan, foydali qazilmalarni qazib olish solig'ining asosiy funksiyalarini ochib bergan, foydali qazilmalarni qazib olish solig'i bo'yicha soliqqa tortish ob'ekti va soliq stavkasini huquqiy tartibga solishni har tomonlama tahlil qilgan, soliq solinadigan baza, soliq davri, foydali qazilmalarni qazib olish solig'ini hisoblash va to'lash tartibini ilmiy jihatdan ochib bergan, foydali qazilmalarning ayrim turlarini qazib olish va soliqqa tortish bilan bog'liq muammolar doirasida takliflar ishlab chiqqan"⁶. Shuningdek, G.Golovanov foydali qazilmalarni qazib olish solig'iga ta'rif beradi, uning fikricha, "Yer qa'ridan foydalanuvchilar zimmasiga soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga asoslanib, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan harajatlarni qoplash uchun davlat mablag'lari jamg'armasini shakllantirishda shaxsiy tekin va qaytarib olinmasligi asosida ishtirok etish majburiyatini yuklashning huquqiy shakli tushuniladi"⁷.

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqlarni ilmiy tadqiqotlar olib borgan mahalliy olimlar ham talaygina, ayniqsa, keyingi vaqtlarda bu borada ilmiy tadqiqotlar biroz jonlanganligi ko'rish mumkin. Bu kabi ilmiy tadqiqotlar sirasida iqtisod fanlari doktori, professor G'.Safarov, iqtisod fanlari doktori, professor D.Qurbonov, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktorlari N.Djulibekov, X.Bozorov, A.Tursunboev va shu kabilarni keltirib o'tish mumkin.

O'zbekistonda boshqa resurs soliqlari bilan bir qatorda yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni chuqur ilmiy tadqiqotlar olib borgan olim sifatida G'.Safarovning ilmiy tadqiqotlarini keltirish mumkin. Ushbu olim mol-mulk va yer solig'ini undirish mexanizmlari bilan bir qatorda yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni yanada takomillashtirish bo'yicha ham ilmiy takliflarni ilgari surgan. Jumladan, "qimmatbaho, rangli va radioaktiv metall nodir element, uglevodorod xom-ashyosini qazib oluvchi va ularni texnogen mineral hosilalardan ajratib oluvchi, shuningdek, uglevodorod xom-ashyosini qazib oluvchi yuridik shaxslarga maxsus renta solig'ini joriy qilish⁸ni taklif qilgan. Bundan tashqari G'.Safarov yer qa'ri bilan suv resurslaridan samarali foydalanish va soliq bazasini to'g'ri aniqlash maqsadida uni alohida-alohida hisobini yuritishni taklif qilgan.

O'zbekistonda yer qa'ridan foydalanish bilan bog'liq tadqiqotlar yana biri sifatida N.Djulibekovning tadqiqotlarini keltirish o'rinlidir. U "kon-metallurgiya sanoati korxonalari uchun yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq stavkasini oltin, palladiy, kumush va mis bo'yicha 15 foiz miqdorida pasaytirishning maqsadga muvofiqligini, xalqaro tajribadan kelib chiqib kon-metallurgiya sanoati korxonalarida yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqning amaldagi stavkasini 2025-yilgacha 6 foizgacha pasaytirish lozimligi, kon-metallurgiya sanoati korxonalarida foyda solig'ini hisoblashda amaldagi tabaqalashgan stavkasining yuqori darajasini xalqaro amaliyotga mos ravishda bosqichma-bosqich pasaytirish orqali soliq yig'iluvchanligini oshirish zarurligini, bu tarmoqqa asosiy fondlarni xarid qilishga sarflangan summaning foydadan hisoblangan soliq summasidan chegirib qolinadigan qismini 5 foizdan 10 foizgacha oshirishni, energiya tejamkor hisoblangan yuridik

5 Мельникова Юлия Васильевна. Регулирование ресурсно-рентного налогообложения Российских недропользователей. Специальность: 08.00.10 - «Финансы, денежное обращение и кредит». Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Саратов – 2011, стр. 19.

6 Голованов Георгий Русланович. Правовое регулирование налога на добычу полезных ископаемых. Специальность 12 00 14 - административное право, финансовое право, информационное право. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук, Москва-2009, стр. 28.

7 Ўша манба.

8 Сафаров Фиёсиддин Абдуллаевич. Табиий ресурс ва мол-мулкларни солиққа тортиш механизмини такомиллаштириш. 08.00.07 – «Молия, пул муомаласи ва кредит» (иқтисодийот фанлари) иқтисодийот фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати тошкент – 2023 йил, 74 б.



shaxslarning asosiy vositalarini foydalanishga topshirilgandan so'ng 3-yil mobaynida mol-mulk solig'idan ozod qilishni, ilmiy-tadqiqot va tajribakonstruktorlik ishlari uchun amortizatsiya qilinadigan aktivlarni olishga oid xarajatlar miqdorini to'lanishi lozim bo'lgan foyda solig'i summasidan kamaytirishni maqsadga muvofiqligini asoslab bergan. Bundan tashqari, yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqning past stavkasini foyda solig'ining yuqori stavkalari bilan qoplanishiga xizmat qiluvchi balanslantiruvchi yondashuvni qo'llash mexanizmini ishlab chiqqan, kon-metallurgiya sanoati korxonalari faoliyatini rag'batlantirish maqsadida investitsiya (soliq) kreditidan foydalanish zarurligini isbotlab bergan hamda ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik ishlarida foydalaniladigan asbob-uskuna va bino-inshootlarni, energiya tejamkor asosiy vositalari foydalanishga topshirilgach mol-mulk solig'idan ozod qilish ilmiy jihatdan asoslab⁹ bergan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq tabiiy boyliklardan samarali foydalanishning iqtisodiy dastagi sifatida iqtisodiyotni tartiblashda muhim omil bo'lib xizmat qilishi bilan bir qatorda ushbu soliq davlat budjeti daromadlarini shakllantirishda o'rtacha 9-10 foiz atrofida soliq tushumlarini ta'minlab turibdi. Biroq, shuni ham ta'kidlash kerakki, yer qa'ridan foydalanish va iste'mol etishga ixtisoslashgan korxonalar esa, yirik soliq to'lovchi sifatida mamlakatimiz milliy iqtisodiyotida yalpi ichki mahsulotdagi ulushi va davlat budjeti daromadlaridagi ulushi jihatdan yuqori ulushlarni egallaydi. Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, resurslardan samarali foydalanishni soliqqa tortish murakkab iqtisodiy jarayonlarga bog'lanib ketadi, o'z navbatida bu borada ma'lum bir o'z yechimini kutayotgan ilmiy-amaliy muammolar ham mavjud bo'lishi tabiiydir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Солиқ кодекси-Тошкент: Фафур Фулом нашриёт уйи 2020.- 640 б.
2. Ғ.А.Сафаров. Хўжалик юритувчи субъектларнинг табиий ресурслардан самарали фойдаланишини солиқлар воситасида рағбатлантириш. Иқтисодиёт фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертацияси автореферати. Т.Академия. 2006 й. 26 б.
3. Д.Р.Қурбанов Ўзбекистон республикасида сув ресурсларидан фойдаланиш самарадорлигини оширишнинг молиявий механизмларини такомиллаштириш. И.ф.д (DSc)... дис... автореферати. – Т.: 2020. -38 б.
4. З.А.Х.Тошқулов. “Қишлоқ хўжалиги корхоналари иқтисодий фаолиятини солиқлар воситасида рағбатлантириш масалалари”. И.ф.д (DSc)... дис... автореферати. – Т.: 2021. -47 б
5. Kuznetsov, S.A. (1998). Great Dictionary of the Russian language. – St. Petersburg, “Norint”
6. Bodi, Zv., Merton R.K. (2013). Finance. – Moscow, Publishing House “Williams”, 2013. Bolshakov, S.V. (2006). Finance companies. Theory and practice. – Moscow: Book World, 2006. – 617 p.
7. Barulin, S.V. (2010). Finance. – Moscow, KNORUS, 640 p.
8. Zyatkovskyy, I.V. (2000). The financial support of business – Ternopol, Economic thought, 215 p.
9. Sokolska, T.V. (2014). Financial support for agriculture. Economy and management of agribusiness, issue 1, p. 140-146.
10. I.Yu.Zoxidov “Yer qa'ridan samarali foydalanishda soliq mexanizmining rolini oshirish masalalari” I.f.f.d (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati T.: 2025. -18 б.

9 Джулибеков Нурмат Каршибекович. Кон-металлургия sanoati korxonalarini soliqqa tortish mexanizmini такомиллаштириш. 08.00.07 – “Молия, пул муомаласи ва кредит” иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси АВТОРЕФЕРАТИ Тошкент шаҳри – 2022 йил, 57 б.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100